SIYOSIY TAHLILCHILAR TAYYORLASHDA YAPONIYA TAJRIBASI

Axmadjonova Mardonaxon
Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti
Xalqaro munosabatlar yo‘nalishi 2-bosqich

Annotatsiya. Mazkur maqolada davlat siyosatini yuritishda siyosiy tahlil va tahlilchilarning ahamiyati ko‘rsatilgan. Shuningdek, siyosiy tahlilchilar tayyorlashda yapon tajribasining eng kuchli jihatlari muxatasar yoritilgan. Shu jumladan zamonaviy texnologiyalar va yondashuvlarning siyosiy tahlilchilar tayyorlash jarayonidagi zarurati muxtasar tadqiq etilgan. Maqola siyosiy tahlilchilar tayyorlashda Yaponiyaning eng ahamiyatli hisoblangan GRIPS - Siyosiy tadqiqotlar milliy instituti, Nomura va Mitsubishi aql markazlarining ahamiyatini, yutuqlari va kamchiliklarini ochib beradi.

Kalit so‘zlar: Big Data, Data science, GRIPS, MP1, MP2 , multi-disiplinar, “Nomura”, “Mitsubishi” simbioz,

KIRISh Bugungi kunda xalqaro munosabatlarning beqarorligi sharoitida davlatlar o‘z suverenitetini himoya qilishida, strategiyalarini ishlab chiqib, to‘g‘ri tashqi siyosat olib borishida, avvalgi a’nanaviy siyosat yuritish usullar siyosiy qarorlar samaradorligini cheklamoqda. Gibrid tahdidlar va axborot urushlari va shu kabi zamonaviy tahdid xavf-xatarlar xalqaro munosabatlarning har bir aktoridan chuqur tahlilga asoslangan siyosatni talab qilmoqda. Siyosiy tahlilchilar tayyorlash tizimining institutsional jihatdan to‘g‘ri shakllantirilmagani siyosiy qarorlarning to‘g‘ri yo‘naltirilmasligiga va yetarlicha tahliliy asosga ega bo‘lmasligiga olib keladi.

Siyosiy tahlilchilar tayyorlash tizimini tadqiq etish va rivojlantirishda xorij tajribasi samarali usullardan biri hisoblanadi. Meydzi inqilobidan so‘ng G‘arb bilan integratsiyalashuvda o‘z Sharqona ruhini saqlab qola olgan va Ikkinchi jahon urushi tajribasidan keyin o‘zining tinchlikparvar siyosatini yarim asrdan ortiq vaqt davomida yuritib kelayotgan Yaponiya, siyosiy tahlilchilar tayyorlashda davlat va akademiya hamkorligining, aql markazlari orqali sisyosiy tahlilchilar faoliyatini yo‘lga qo‘yishning yorqin namunasidir. Siyosiy tahlilchilar tayyorlashda Yaponiyaning aynan yuqoridagi modellari davlat siyosatini takomillashtirishga, akademiya va davlat o‘rtasida mustahkam aloqalarni o‘rnatishga va davlat siyosatidagi eng muammoli jihatlarni o‘rganib, kadrlarni shu yo‘nalishda tayyorlashga yordam beradi.

Yaponiyaning mazkur tajribalari institutsional va metodologik jihatdan mukammal shakllangan model hisoblanadi. Ushbu maqolaning maqsadi siyosiy tahlil sohasida kadrlar tayyorlashdagi Yaponiya tajribasini tadqiq etish, uning o‘ziga xos jihatlarini ochib berish va tizimli mexanizmlarini tahlil qilishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Davlat siyosatini tahlil qilish sohasi doirasida jahonda va shu jumladan Yaponiyada bir qancha tadqiqotlar amalga oshirilgan. Lekin bu soha ayniqsa, Yaponiyadagi siyosiy tahlilchilar tayyorlashdagi “Amakudari”, “Shingikai” tizimlarining ahamiyatiga doir ilmiy tadqiqotlar yetarli emasligi, mazkur sohaning kamchiliklaridandir.

Yaponiyada siyosiy tahlilchilar tayyorlashda Siyosiy tadqiqotlar milliy instituti – GRIPSning, Nomura va Mitsubishi tadqiqot institutlarining ahamiyati katta . Shu sababdan aynan shu uch institutning siyosiy tahlilchilar tayyorlashdagi roli, asosiy farqlar va dasturlari

muxtasar tahlil qilindi. Tahlil qilish jarayonida institutlarning rasmiy sahifalariga, bitiruvchilar haqida ma’lumotlarga va rasmiy saytlariga murojaat qilindi.

Ushbu maqolani yozish davomida qiyosiy tahlil, kontent tahlili va institutsional tahlil usullaridan foydalanildi.

NATIJALAR

Yaponiyada siyosiy-tahlilchilar tayyorlash tizimi bir necha aniq institutsional modellar asosida amalga oshiriladi. Shuningdek Yaponiyada siyosiy tahlilchilar faqatgina nazariy asosda faoliyat olib borish bilan cheklanib qolmay balki, vazirliklar huzuridagi Shingikailarda ya’ni maslahat kengashlarida amaliy tajribani ham sinab ko‘rishadi.

GRIPS. Siyosiy tahlilchilar tayyorlashda GRIPS - Siyosiy tadqiqotlar milliy instituti muhim ahamiyat kasb etadi. 1997-yilda oliy ta’lim muassasasi sifatida tashkil etilgan GRIPS magistratura va doktoranturaga yo‘naltirilgan dasturlari orqali davlat siyosatini shakllantirish, boshqarish va muammolarni tahlil qilish, yechim berish qobiliyatiga ega kadrlarni tayyorlash bilan shug‘ullanadi. GRIPSning asosiy maqsadi - davlat siyosatidagi muammolarni aniqlash va ularga turli xil hamda innovatsion yechimlar taklif qilish qobiliyatiga ega bo‘lgan kelajak yetakchilarini tarbiyalashdir. GRIPS asosiy uch maqsad yo‘lida faoliyat olib boradi:

1. Siyosat mutaxassislari va tadqiqotchilarini tayyorlash
2. Siyosiy fanlararo tadqiqotlarni rivojlantirish
3. Xalqaro siyosat tadqiqotlari markazi sifatida xizmat qilish[1]

GRIPSning MP1 - Bir yillik magistrlik dasturi siyosiy tahlilchilar tayyorlashda amaliy pragmatizm tamoyiliga tayanadi. Dastur ma’lumotlarida keltirilishicha, akademik va amaliy bilimlarning kombinatsiyasi GRIPS ta’lim tizimidagi eng muhim xususiyatdir. Ayniqsa, darslarning davlat siyosatini shakllantirishda bevosita tajribaga ega bo‘lgan hukumat rasmiylari tomonidan o‘tilishi, bo‘lajak siyosiy tahlilchilarning nazariy modellarni real siyosiy jarayonlarga moslashish ko‘nikmasini shakllantiradi.[2]

MP2- ikki yillik magistrilik dasturlarida esa MP1dan farqli o‘laroq, nafaqat amaliy boshqaruvni, balki professional tahlilchilar uchun zarur bo‘lgan fundamental ilmiy-tadqiqot ko‘nikmalarini shakllantirishga ixtisoslashgan. Dasturning birinchi yilida bazaviy bilimlar berilsa, ikkinchi yilda talabalar MP1da mavjud bo‘lmagan chuqurlashtirilgan Ekonometrika, Data Science va miqdoriy tahlil usullarini professional darajada o‘zlashtiradilar. MP1 bitiruvchilari asosan amaliy siyosat hujjatlari - Policy paperlar bilan cheklansa, MP2 talabalari yuqori malakali mutaxassis rahbarligida to‘liq hajmli akademik magistrlik dissertatsiyasini himoya qilishlari shart etib belgilangan. Ikki yillik chuqur tizimlashtirilgan ta’lim Talabani strategik prognozlar ishlab chiquvchi va murakkab ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni matematik modellashtira oladigan ekspert darajasiga ko‘taradi.[3]

GRIPS doktorlik dasturlari 2002-yildan buyon xalqaro standartdagi multi-dissiplinar tadqiqotchi va yuqori malakali davlat boshqaruvchilarini tayyorlab keladi. Tizim ikki xil modelga asoslangan: 5 yillik integratsiyalashgan ya’ni Magistratura + Doktorontura va 3 yillik mustaqil doktorantura yo‘nalishlari mavjud bo‘lib, ular Davlat iqtisodiyoti, Global boshqaruv va Xalqaro munosabatlar kabi sohalarda ilmiy darajalar beradi. Doktorantlar uchun talablar o‘ta qat’iy bo‘lib, ular dissertatsiya taklifini taqdim etishdan tashqari, fanlararo bilim va tadqiqot metodologiyasini qamrab oluvchi malaka imtihonidan

[1] GRIPS- National graduate instituti for policy studies https://www.grips.ac.jp/en/

[2] GRIPS- National graduate instituti for policy studies One-year Master’s Program of Public Policy (MP1) https://www.grips.ac.jp/en/education/inter_programs/policy/

[3] GRIPS- National graduate instituti for policy studies Two-year Master’ s Program of Public Policy (MP2) https://www.grips.ac.jp/en/education/inter_programs/policy2/

muvaffaqiyatli o‘tishlari shart. Dasturning o‘ziga xosligi shundaki, u nafaqat akademik yozish ko‘nikmalarini, balki ijtimoiy fanlar bo‘yicha dars berish malakasini ham shakllantiradi, bitiruvchilar esa yakunda “Davlat siyosati doktori” yoki “Siyosiy tadqiqotlar doktori” darajasini oladilar.[4]

GRIPS ta’lim tizimining eng muhim xususiyati u o‘zida davlat siyosatiga oid eng muhim to‘rt sohani ya’ni Davlat siyosati, Iqtisodiy siyosat , Xalqaro munosabatlar va Xalqaor rivojlanish tadqiqotlari sohalarini tadqiq etish va tahlillar orqali qaror qabul qilishga o‘rgatadi. GRIPS bitiruvchilari tarmog‘i - Alumni xalqaro miqyosda davlat boshqaruvining eng yuqori bo‘g‘inlarini qamrab olgan bo‘lib, bunga Loo Took Gee - Malayziya Energetika vazirligi Bosh kotibi va Nguon Sokha - Kambodja Iqtisodiyot vazirligi Davlat kotibi , Alfonso Ver - Filippinning Bahrayndagi elchisi va Anvar Sanusi - Indoneziya Qishloq xo‘jaligi vazirligi Bosh kotibi kabi mutaxassislar misolida ko‘rinadi, ular bugungi kunda o‘z mamlakatlarining tashqi va ichki siyosati, hududiy rivojlanish strategiyalarini belgilab bermoqda.[5]

Aqliy markazlar. Yaponiyada siyosiy tahlilchilar nafaqat oliygohlarda balki “Nomura”, “Mitsubishi” kabi aql markazlarida ham tayyorlanadi. Yuqoridagi kabi aql markazlari davlat buyurtmalari asosida faoliyat olib boradi. Aql markazlari siyosiy qarorlarni ilmiy jihatdan asoslash, katta hajmdagi ma’lumotlar Big Data ni tahlil qilish, uzoq muddatli strategik prognozlash bilan shug‘ullanib, uzoq muddatli rivojlanish ssenariylarini ishlab chiqadi. Bu davlat siyosatida qarorlar qabul qilishda barqarorlik, izchillik va pragmatizmni ta’minlaydi.

Nomura Research Instituti (NRI) - Nomura tadqiqotlar instituti 1965-yildan buyon iqtisodiy va siyosiy ma’lumotlarni tahlil qilishni rivojlantirgan. 1967-yilda NRI Nyu-Yorkda birinchi xorijiy ofisini ochib, xalqaro siyosiy va iqtisodiy monitoringni yo‘lga qo‘ydi, keyinchalik esa London, Gonkong, Avstraliya, Singapur, Seoul va Tailandda ochildi. Kompaniya 1974-yilda qimmatli qog‘ozlar sohasida THE STAR tizimini yaratib, murakkab moliyaviy va siyosiy ma’lumotlarni birlashtirishdi. Kompaniya keyingi davrlarda faqat davlat siyosati va moliya bilan cheklanib qolmasdan, xavfsizlik, IT, strategik konsalting , raqamli transformatsiya doirasida umumlashtirilgan tizimga aylandi.[6]

Nomura tadqiqotlar institutining o‘ziga xos jihati, u siysoiy tahlilchilarni tayyorlashda kasbiy malakaviy bilimlar bilan cheklanib qolmaydi, balki korporatsiyaning maxsus falsafasini shakllantiradi.NRI dagi tahlilchilarning asosiy vazifasi ma’lumotlarni tahlil qilish emas balki, yangi paradigmalar ishlab chqiib ularni amalga oshirishdan iborat.[7]

1970-yilda tashkil etilgan Mitsubishi Research Instituti (MRI) - Mitsubishi tadqiqotlar insituti siyosiy va iqtisodiy tahlil ishlari orqali global nuqtai nazarga asoslangan siyosiy tavsiyalar ishlab chiqishni boshladi.1980-yillarda MRI xalqaro va ichki infratuzilma loyihalarida, shu jumladan Suez kanali operatsiyalarini boshqarish tizimi va yangi Shinkansen liniyalari uchun tadqiqotlarda ishtirok etdi hamda sun’iy intellekt va ekspert tizimlarini rivojlantirdi. 1990-yillarda MRI atrof-muhit, yangi energiya siyosati va GPS ma’lumotlaridan foydalangan tizimlarni ishlab chiqish bo‘yicha tadqiqotlar olib bordi, shuningdek Global Environmental Research Center va Safety Engineering Research Center

[4] GRIPS- National graduate instituti for policy studies Doctoral Programs https://www.grips.ac.jp/en/education/phd_programs/

[5] GRIPS- National graduate instituti for policy studies Doctoral Programs https://www.grips.ac.jp/en/alumni/index/

[6] NRI – Nomura research instituti NRI’s history https://www.nri.com/en/company/history.html

[7] NRI – Nomura research instituti Corporate philosophy https://www.nri.com/en/company/c_philosophy.html

tashkil qilindi.2000-yillarda MRI IT yechimlari sohasiga to‘liq kirib, ijtimoiy tizimlarni rivojlantirish, CO2 emissiya huquqlari savdosi, genom tadqiqotlari va IPv6 protokoli bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib bordi. 2010-yillarda MRI “Think & Act” tanki sifatida faoliyat yuritib, yadro inqirozi va sun’iy ofatlar bo‘yicha tiklash loyihalarini qo‘llab-quvvatladi, mega-quyosh energiya loyihalariga investitsiya qildi va sun’iy intellekt xizmatlarini joriy etdi.[8]

Mitsubishi tadqiqotlar instituti jahondagi va Yaponiyadagi aql markazlariga nisbatan bir necha ustunliklarga ega. MRI tahlilchilari faqat siyosatshunoslar emas. Markazda 1000 ga yaqin tadqiqotchi bo‘lib, ular biologiya, raqamli texnologiyalar, energetika va iqtisodiyot kabi turli sohalarni birlashtiradi. MRI tahlil jarayoniga Generativ AI va Katta ma'lumotlar - Data Science tahlilini chuqur integratsiya qilgan, tahlil va hisobotlarni avtomatlashtiruvchi “RoboRisa” kabi AI xizmatlarini yaratgan. MRI nafaqat taklif beradi, balki ularni amalga oshirish bilan ham shug‘ullanadi. Kiberxavfsizlik, aqlli shaharlar - Smart City va yashil energetika bo‘yicha tayyor biznes modellarni taqdim etadi. MRI o‘z tajribasini Dubay va Xanoy kabi xorijiy ofislari orqali dunyoga eksport qiladi[9]

Oddiy qilib aytganda, siyosat tahlil - bu yaxshiroq qarorlar qabul qilinishi uchun siyosatchilarga yordam berish maqsadida bilimlardan foydalanishning fani va san’atidir. Tarixan, hukumat qaror qabul qiluvchilari o‘z qarorlariga erishishda ularga yordam beradigan mutaxassislarga tez-tez murojaat qilib kelgan. Ushbu yangi kasb siyosatchilarga o‘zlarining muqobil variantlarini va ular orasidan tanlaniladigan tegishli mulohazalarni yaxshiroq tushunishda yordam beradi.[10]

XULOSA

Sirasini aytganda, siyosiy tahlil davlatning nafaqat tashqi va ichki siyosati balki undagi iqtisodiyot, axborot texnologiyalari kabi sohalarga ham bevosita ta’sir o‘tkazadi. Uzoq muddatli strateguyalar ishlab chiqish va oqilona siyosat olib borishda siyosiy tahlining ahamiyati beqiyosdir. Yaponiyada siyosiy tahlilchilar tayyorlash modeli qolgan mamlakatlardagi tizimdan farqi boshqa sohalar bilan uyg‘unlashib keta olgani, davlat va akademiya hamkorligi hisoblanadi. Bundan tashqari aynan siyosiy tahlilchilar tayyorlashda yapon tajribasidan bir qancha jihatlarini o‘rganish va amalda tatbiq etish lozim deb topildi.

Birinchidan, Siyosiy tadqiqotlar milliy instituti va unga davlat lavozimlarida faoliyat ko‘rsatgan akademik xodimlarni o‘qituvchi professorlar sifatida taklif etish ya’ni Amakudari tizimi eng ahamiyatli jihatlardan biri hisoblanadi. Bu orqali talabalarga nafaqat nazariy va siyosiy tahlil balki amaliy tajriba ham singdiriladi. Davlat muassasalarida real muammolar bilan yuzlashganda qaror qabul qilish ko‘nikmalarini yanada yaxshilaydi. Yaponiyadagi davlat va akademiyaning simbioz faoliyati kuchli siyosiy tahlilchilar yetirishdagi asosiy omillardan biri.

Ikkinchidan, Nomura tadqiqotlar instituti misolida Yaponiya tajribasining eng muhim jihatlaridan birini yoritadigan bo‘lsak, institut tahlilchilar uchun korporatsiyaning shaxsiy falsafasini shakllantira olgan. NRI da faoliyat yuritadigan va tayyorlanadigan siyosiy tahlilchilar yo‘nalishi va mutaxassisligidan qat’i nazar umumiy falsafa va maqsadlar yo‘lida xizmat qiladi. Endi tahlilchilar shunchaki ma’lumotlar tahlili bilan emas balki, yangi paradigmalar ishlab chiqish zamonaviy muammolarga zamonaviy yondashuvlar bilan yechim

[8] Mitsubishi Research instituti History https://www.mri.co.jp/en/about-us/info/history/index.html

[9] Mitsubishi Research instituti Capabilities https://www.mri.co.jp/en/capabilities/index.html#CaseStudies

[10] Does Policy Analysis Matter? Exploring Its Eff ectiveness in Theory and Practice Edited by Lee S. Friedman Yale University, May 1993, 3-p.

topish bilan shug‘ullanadi. Bu xususiyat Nomura tadqiqotlar institutini aql markazi sifatidagi ko‘rinishini bilim ishlab chiqaruvchi fabrika sifatida boyitadi.

Uchinchidan, Mitsubishi tadqiqotlar instuti misoli zamonaviy Yaponiyaning har tomonlama rivojlanish tendensiyalari aniq ochib bera oladi. Aql markazining faqatgina siyosiy soha bilan cheklanib qolmaganligi, Yaponiya ichidagi va tashqarisidagi muammolarni keng ko‘lamda o‘rganishga ixtisoslashgani uning e’tirofga munosib jihatlaridan. Shuningdek, institut karbon qatlamining yemirilishi, sun’iy ofatlar, yadro inqirozi , energetik taqchillik kabi keng sohalarda tadqiqotlar olib boradi. Endilikda aql Markazi zamonaviy muammolarga nafaqat zamonaviy tahlil balki yechimlar ham bermoqda va faoliyatini “Think and Act” yo‘nalishida olib bormoqda. MRI ning bu xususiyati ham Yaponiyadagi siyosiy tahlilchilar tayyorlash tajribasidan foydalanish ancha samarali bo‘lishini ko‘rsatib beradi.

To‘rtinchidan, biz Yaponiya tajribasidan o‘rganishimiz kerak bo‘lgan yana bir asosiy jihat zamon bilan hamnafaslik hisoblanadi. XXI asr axborot asri hisoblangani sababli ham siyosat va uning tahlili o‘zgacha xususiyat kasb etmoqda va bu jarayonlarga moslashishni ham talab qilmoqda. MRI misolida ko‘rish mumkinki institut siyosiy tahlilni generative sun’iy intellect bilan uyg‘unlashtira olgan, startegik, siyosiy va Data science bo‘yicha tahlilni amalga oshirishda sun’iy intellect tizimi “RoboRisa” ni ham joriy etgan. Yangi davrda hatto klassik siyosat ham yangi texnologiyalarni talab qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Friedman, L. S. (Ed.). (1993). Does policy analysis matter? Exploring its effectiveness in theory and practice. Yale University Press.
2. Mitsubishi Research Institute. Capabilities. Retrieved from https://www.mri.co.jp/en/capabilities/index.html#CaseStudies
3. Mitsubishi Research Institute. History. https://www.mri.co.jp/en/about-us/info/history/index.html
4. National Graduate Institute for Policy Studies (GRIPS). Alumni index. Retrieved from https://www.grips.ac.jp/en/alumni/index/
5. National Graduate Institute for Policy Studies (GRIPS). Doctoral programs. Retreived from https://www.grips.ac.jp/en/education/phd_programs/
6. National Graduate Institute for Policy Studies (GRIPS). One-year Master’s Program of Public Policy (MP1) Retrieved from https://www.grips.ac.jp/en/education/inter_programs/policy/
7. National Graduate Institute for Policy Studies (GRIPS). Two-year Master’s Program of Public Policy (MP2). Retrieved from https://www.grips.ac.jp/en/education/inter_programs/policy2/
8. National Graduate Institute for Policy Studies (GRIPS). Website overview. Retreived from https://www.grips.ac.jp/en/
9. Nomura Research Institute (NRI). Corporate philosophy. Retrieved from https://www.nri.com/en/company/c_philosophy.html
10. Nomura Research Institute (NRI). NRI’s history. Retrieved from https://www.nri.com/en/company/history.html